| Sadikov Q.M.                                                                                                                                                            |     |



|                                                                                                                                                     |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| BOSHQARUV HISOBIDA NARX SHAKLLANISHINING NAZARIY JIHATLARI (TOVAR BOZORIDA USTUN MAVQEGA EGA XO'JALIK SUBYEKTLARI MISOLIDA).....                    | 646 |
| Xaitmetov Elmurat Sidikmatovich                                                                                                                     |     |
| ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ЭНЕРГОЁМКОСТИ ВВП НА ОСНОВЕ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ .....                                                                        | 652 |
| Муслимова Ф.С., Хашимова Н.А.                                                                                                                       |     |
| XALQARO LOYIHALARNI BOSHQARISHDA RAQAMLI INTEGRATSIYA YETUKLIGI MODEL VA SAMARADORLIKNI BAHOLASH METODOLOGIYASI .....                               | 659 |
| Ne'matova Bonura Umid qizi                                                                                                                          |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ICHKI AUDITNING MOHIYATI, MAQSADI VA ASOSIY VAZIFALARI .....                              | 664 |
| Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich                                                                                                                   |     |
| OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI FAOLIYATIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV ASOSIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH.....                                          | 674 |
| Xusanova Gavhar                                                                                                                                     |     |
| MAHALLIY SHAROITDA SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARNI KO'P MEZONLI BAHOLASHNING IQTISODIY YO'NALTIRILGAN GIBRID MODEL VA UNING AMALIY QO'LLANILISHI..... | 679 |
| Mirzayeva Shaxnoza Mamat qizi                                                                                                                       |     |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QUYOSH FOTOELEKTR STANSIYALARINING HOLATI VA O'RNATILGAN QUVVATLARINI TAHLIL QILISH .....                                | 683 |
| Maxamadiyev Farrux Mirazimovich, Baratov Laziz Suyun o'g'li                                                                                         |     |
| BUDJET TASHKILOTLARIDA BUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LARNING NAZORATINI TASHKIL QILISH.....                                                             | 688 |
| Dadaboyev Tulqinjon Yusupjonovich, Dadaboyev Abdurahmon Ne'matjon o'g'li                                                                            |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY OMILLARI VA ZAMONAVIY AHAMIYATI .....                                                   | 693 |
| Yusubov Inomjon Ikrom o'g'li                                                                                                                        |     |
| MOLIYAVIY RESURLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK VA AMALIY JIHATLARI .....                                                                   | 699 |
| Narzulloyev Behruz Baxtiyor o'g'li                                                                                                                  |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RAQAMLI BANK XIZMATLARI AMALIYOTI TAHLILI .....                                                                      | 702 |
| Kazakbayev S.B.                                                                                                                                     |     |
| BOG'DORCHILIK TARMOG'NI RIVOJLANTIRISHDA SUV TEJAMKOR TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....               | 705 |
| Sattorov Orifjon Boymurodovich                                                                                                                      |     |
| MHXS ASOSIDA SUG'URTA KOMPANIYALARINING BUGALTERIYA HISOB VA MOLIYAVIY TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYALARI.....                              | 709 |
| Alimov Baxodir Batirovich                                                                                                                           |     |
| QISHLOQ XO'JALIGINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA DAVLATNING IMTIYOZLI MOLIYALASHTIRISH MYEXANIZMLARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....          | 718 |
| Xolmatov Sanjarbek Xojimamatovich                                                                                                                   |     |
| MAHALLA TIZIMIDA INSON KAPITALIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA INKLYUZIV IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI.....                               | 724 |
| Berkinov Bozorboy Berkinovich                                                                                                                       |     |
| XALQARO TURIZM BOZORIDA MICE TURIZMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH JARAYONLARINING NAZARIY ASOSLARI .....                                         | 728 |
| Fayyoza Xalimova Nafasovna                                                                                                                          |     |
| O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA MIJOZLARGA YO'NALTIRILGAN BIZNES JARAYONLARINI TRANSFORMATSIYA QILISH AMALIYOTI.....                                 | 733 |
| Azimov Asrorjon Muzaffarjonovich                                                                                                                    |     |
| RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BANDLIKNI LEGALLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI .....                                                  | 737 |
| Xalimbetov Farxad Bagibekovich                                                                                                                      |     |





|                                                                                                                                           |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| TIJORAT BANKLARINING BIZNES EKOTIZIMI MUAMMO VA YECHIMLAR.....                                                                            | 742 |
| Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li                                                                                                         |     |
| QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI YALPI HUDUDIIY MAHSULOT XAJMIGA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTISIYALARNING TA'SIRI .....                | 749 |
| Sultanov Anvar Abdullaevich                                                                                                               |     |
| YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA QURILISH SANOATINING IQTISODIY HOLATI.....                                                          | 754 |
| Axmedova Sanobar Ikrom qizi, Davlatov Ahmadjon Anvarbek o'g'li                                                                            |     |
| DAVLAT XUSUSIY SHERIKCHILIK LOYIHALARIDA VUJUDGA KELADIGAN RISKLARGA QARSHI UZOQ MUDDATLI IQTISODIY STRATEGIYALAR .....                   | 760 |
| Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li                                                                                                        |     |
| MODERN MODELS OF SALES LOGISTICS IN THE SERVICE SECTOR: MARKETING ASPECT AND AREAS FOR IMPROVEMENT .....                                  | 764 |
| Mamatkulova Shoir Djalolovna                                                                                                              |     |
| РОЛЬ ПЛАНИРОВАНИЯ И ПРОГНОЗИРОВАНИЯ В СИСТЕМЕ ОРГАНИЗАЦИИ ФИНАНСОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА.....                      | 769 |
| Ахмедова Азиза Тохировна, Зайналов Ж.Р.                                                                                                   |     |
| ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА КАК ОСНОВА ФИНАНСОВОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ.....                                    | 774 |
| Айматова Фарид Хуразовна                                                                                                                  |     |
| XORIJIY MOLIVAVIY RESURLAR VA ULARNING IQTISODIY O'SISH SIFATINI TA'MINLASHDAGI O'RNII .....                                              | 778 |
| Xomidova Kamola G'olib qizi                                                                                                               |     |
| SUG'URTA TASHKIOTLARIDA TO'LOV QOBILIYATINI OSHIRISHGA QARATILGAN ICHKI BOSHQARUV INSTRUMENTLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....                | 783 |
| Xattabov Murodulla Batirovich                                                                                                             |     |
| RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHIGA TA'SIRI .....                                                              | 788 |
| Hakimova Nozimaxon Sobirjon qizi                                                                                                          |     |
| O'ZBEKISTON QURILISH KORXONALARIDA KORPORATIV-IJTIMOIIY MAS'ULIYAT HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI .....                               | 795 |
| Murotkosimov Shoxrux Abdusalimovich                                                                                                       |     |
| ТЕНДЕНЦИИ ИЗМЕНЕНИЯ ВАЛОВОГО ВНУТРЕННЕГО ПРОДУКТА УЗБЕКИСТАНА ЗА ПОСЛЕДНИЕ ГОДЫ.....                                                      | 803 |
| Ишонкулова Феруза Асатовна                                                                                                                |     |
| CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....                               | 808 |
| Sadinov Aziz Ziyadullayevich                                                                                                              |     |
| BOJXONA BOSHQARUVIDA RAQAMLASHTIRISHNING XALQARO TAJRIBASI .....                                                                          | 814 |
| Radjapova Latofat Sardorovna                                                                                                              |     |
| MILLIIY IQTISODIYOTDA SANOAT KORXONALARI RIVOJLANISHI XUSUSIYATLARI .....                                                                 | 821 |
| Abdullayeva Madina Kamilovna                                                                                                              |     |
| UY-JOY QURILISHI SOHASIGA ESKROU MEXANIZMINI JORIY ETISH ORQALI ULUSHDORLAR MABLAG'LARINI HIMOYA QILISH ISTIQBOLLARI .....                | 827 |
| Nigmatov Akbarjon Anvarovich                                                                                                              |     |
| TASHQI SAVDO BALANSINI MUVOZANATLASHTIRISH .....                                                                                          | 831 |
| Rahimov Eshmurod Normurodovich, Misliddinov Ikromjon Kamoliddin o'g'li                                                                    |     |
| DON VA UN MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHNING YEVRQA TAJRIBASI .....                         | 837 |
| Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li                                                                                                      |     |
| RAQAMLI SUG'URTA (INSURTECH) EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA MOLIVAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS JIHA TLARI..... | 842 |
| Nozimov Eldor Anvarovich                                                                                                                  |     |
| MAHALLIIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ASOSIDA IMPORT O'RNINI BOSUVCHI MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH STRATEGIYASI .....                | 847 |
| Sobitova Ra'no Solidjonovna                                                                                                               |     |



|                                                                                                                                                |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ<br>TAJIRIBALARI.....                                          | 850 |
| Raxmonov Aziz Iskandarovich                                                                                                                    |     |
| COST ANALYSIS IN FRUIT AND VEGETABLE PROCESSING PLANTS.....                                                                                    | 855 |
| Rahmatullayev Mirjalol Khatam ogli                                                                                                             |     |
| OLIY TA'LIM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI<br>TAKOMILLASHTIRISH TIJORAT SIRINING O'ZIGA XOS JIHATLARI..... | 861 |
| Butayev Dilshod Eshbekovich                                                                                                                    |     |
| ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ОБЛАЧНЫЕ БУХГАЛТЕРСКИЕ СИСТЕМЫ: НАДЁЖНОСТЬ<br>ОТЧЁТНОСТИ И КИБЕРБЕЗОПАСНОСТЬ.....                                    | 867 |
| Бозорова Озода Рахимовна                                                                                                                       |     |
| RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BANKLARNING CHAKANA KREDITLASH AMALIYOTI<br>TAHLILI .....                                                   | 872 |
| Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi                                                                                                              |     |
| XALQARO STANDARTLARNI AMALGA OSHIRISH JARAYONIDA AUDITORLAR VA KORXONALAR<br>UCHUN AMALIY TAVSIYALAR.....                                      | 877 |
| Ibragimov Azizbek Keldibek o'g'li                                                                                                              |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH<br>IMKONIYATLARI.....                                              | 882 |
| Akbarov Husniddinjon Mo'ysin o'g'li                                                                                                            |     |
| AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY NATIJALAR TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH .....                                                               | 888 |
| Omanov Sanjar Qurbonazar o'g'li                                                                                                                |     |
| O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI SOLIQ IMTIYOZLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISHNING<br>AMALDAGI HOLATI.....                                       | 894 |
| Usmonov Shavkatjon Shukurovich                                                                                                                 |     |
| АДАПТАЦИЯ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА УПРАВЛЕНИЯ ПЕРСОНАЛОМ В НАЦИОНАЛЬНОЙ<br>СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ .....                                          | 901 |
| Абилов Эльман Худаверди оглы                                                                                                                   |     |
| QURILISH SOHASIDA KORPORATIV IJTIMOIIY MAS'ULIYAT: XALQARO TAJRIBA VA QIYOSIY<br>TAHLIL.....                                                   | 906 |
| Murotkosimov Shoxrux Abdisalimovich                                                                                                            |     |
| TADBIRKORNING KREDIT, FOIZ, SOLIQ TO'LOVLARI VA ULARNI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI<br>XUSUSIDA.....                                             | 914 |
| Hakimov Odil Arziqulovich                                                                                                                      |     |
| RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDI IQTISODIYOTNING REAL SEKTORIGA KIRITILGAN<br>INVESTITSIALARNI MOLIYALASHTIRISHNING XUSUSIYATLARI .....               | 918 |
| Xoshimov Sobir Murtazayevich                                                                                                                   |     |
| KORXONALARDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION<br>YONDASHUVLARI .....                                               | 925 |
| Xalilova Aziza Rustamovna                                                                                                                      |     |
| QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATINI<br>BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....                    | 930 |
| Uzakova Umida Ruziyevna                                                                                                                        |     |
| INVESTITSIYA JALB QILISHNING HUDUDIIY MEXANIZMLARI VA ULARNING IQTISODIIY<br>MAZMUNI.....                                                      | 936 |
| Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna                                                                                                                   |     |
| HUDUDLARNING TURISTIK SALOHIIYATINI OSHIRISHDA TURISTIK ZONALARNING AHAMIYATI .....                                                            | 940 |
| Umarova Mahliyo Yaxshiboy qizi                                                                                                                 |     |
| HUDUD OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI SANOATI ISHLAB CHIQARISH KO'RSATKICHLARI<br>SAMARADORLIGINING EKONOMETRIK VA STATISTIK TAHLILI.....              | 945 |
| Xursanov Sherzod Ulaboyevich                                                                                                                   |     |
| YUK TASHUVLARIDA LOGISTIK PROVAYDERLAR FAOLIYATINING NAZARIY-USLUBIIY<br>ASOSLARI .....                                                        | 951 |
| Mannapova Feruza Faxriddin qizi                                                                                                                |     |



|                                                                                                                                                    |      |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| MAMLAKAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA SOHASINI MOLIYALASHTIRISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI .....                           | 956  |
| Mirzaraximova Aziza Azimdjanoyna                                                                                                                   |      |
| IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLARNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI RAQOBATCHILIK MUHITINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI .....                              | 963  |
| Maxmudova Ferangis Raxmatillayevna                                                                                                                 |      |
| O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT TARAQQIYOTINING HOLATI VA USTUVOR MAQSADLI KO'RSATKICHLARI .....                                                 | 968  |
| Saidova Madinaxon Hoshimjon qizi                                                                                                                   |      |
| FERMER XO'JALIKLARINING O'ZBEKISTON AGRAR SEKTORIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....                                                                      | 973  |
| Islamova Dilnoza Isamidinova                                                                                                                       |      |
| ZIYORAT TURIZMINING MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....                                                                                | 978  |
| Uzaqov Jamshid Norboyevich                                                                                                                         |      |
| TIJORAT BANKLARINING EMISSION OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI .....                                                         | 983  |
| Shaymanov Mexriddin Ibragimovich                                                                                                                   |      |
| ISLOM MOLIYASIDA MAJBURIYAT VA OMONAT MEXANIZMLARI: RAHN, VADIYA VA HAVALA.....                                                                    | 987  |
| Sadikova Ra'no Abdullaevna                                                                                                                         |      |
| FIRIBGARLIK BILAN BOG'LIQ AUDITORLIK TEKSHIRUVI RISKLARINI KAMAYTIRISH MASALALARI .....                                                            | 991  |
| Sirojiddinov Ikromiddin Qutbiddinovich                                                                                                             |      |
| СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ И ОЦЕНКА ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ UZAUTO MOTORS.....                                                                               | 996  |
| Шарипов К.А., Зайнутдинова У.Дж.                                                                                                                   |      |
| XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA BANDLIK BILAN TA'MINLASHGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR VA MUAMMOLAR TADQIQI.....                                   | 1005 |
| Mirzayev Qulmamat Djonuzokovich, Saparov Murod Irgashovich                                                                                         |      |
| YO'LOVCHI TASHISH XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI .....                                                          | 1010 |
| Alisher Kurambayev                                                                                                                                 |      |
| SUG'URTA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA TAKAFUL SUG'URTASINING O'RNI VA IMKONIYATLARI.....                                                       | 1014 |
| Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li                                                                                    |      |
| O'ZBEKISTONDA INVESTITSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHNING JORIY HOLATI TAHLILI.....                                                                | 1020 |
| Valikulov Sherzod Zaynitdinovich                                                                                                                   |      |
| RAQAMLI IQTISODIYOTDA MARKETPLEYSLARNI SHAKLLANTIRISH: INVESTITSIYALAR, XARAJATLAR VA FOYDA.....                                                   | 1029 |
| Axmedova Dilshoda Xayrulla qizi                                                                                                                    |      |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MARKETING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI.....                         | 1033 |
| Maxmudov Tohirjon Olimjonovich, Muminova Shahlo Madaminjon qizi                                                                                    |      |
| OLIY TA'LIMDA GENDER TENGLIKNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....                                                                                         | 1039 |
| Xaydarova Sayyora                                                                                                                                  |      |
| ANALYZING THE COMPETITIVE ADVANTAGES OF SOUTH KOREA IN GLOBAL MICE TOURISM: HISTORICAL AND CULTURAL DIMENSIONS.....                                | 1043 |
| Ortikova Sabohat, Gulomova Mukhlisa, Ochilova Hilola Farmonovna                                                                                    |      |
| MEHMONXONA BIZNESIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA) ..... | 1050 |
| Usmanova Gulida Valiyevna                                                                                                                          |      |
| ETHICAL ASPECTS OF ECOTOURISM: BALANCING SUSTAINABLE DEVELOPMENT AND MORAL RESPONSIBILITY.....                                                     | 1055 |
| Gulbakhor Sattarovna Abdullakhanova                                                                                                                |      |
| RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA INVESTITSIYA FAOLLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....                                                                  | 1062 |
| Sobirov Abdurasul Abdugafarovich                                                                                                                   |      |



|                                                                                             |      |
|---------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| KADRLAR BOSHQARUVIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....                                          | 1068 |
| Urazov Sadulla Shodiyevich                                                                  |      |
| TIJORAT BANKLARIDA MOLİYAVIY JINOYATLARNING OLDINI OLISHDA KOMPLAENS-NAZORATNING ROLI ..... | 1074 |
| Zokirov Ismoiljon Ibroximovich                                                              |      |
| AGROSERVIS SOHASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH YO'LLARI .....        | 1078 |
| Pardayev Mamayunus Qarshibayevich, Feruz Nematullayevich Abilov                             |      |





# AGROSERVIS SOHASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH YO'LLARI

**Pardayev Mamayunus Qarshibayevich**

Xalqaro Turon Fanlar akademiyasining akademigi  
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori,  
iqtisodiyot fanlari doktori  
Email: [pardaev\\_mk@mail.ru](mailto:pardaev_mk@mail.ru).

**Feruz Nematullayevich Abilov**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti  
Mustaqil izlanuvchisi  
Email: [feruzabilov@gmail.com](mailto:feruzabilov@gmail.com)  
[ORCID: 0009-0007-1716-4019](https://orcid.org/0009-0007-1716-4019)

**Annotatsiya.** Maqolada agroservis sohasini rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish yo'llari ko'rib chiqilgan. Bunda kambag'allikni qisqartirishning aniq chora-tadbirlari belgilangan. Ushbu tadbirlarga quyidagilar, xususan, eksportyor bilan kambag'al aholi qatlamining kooperatsiyasi, aholini doimiy ish o'rinlariga joylashtirish, tadbirkorlikka jalb etish, yerlarni ijaraga berish va bir qancha boshqa yo'nalishlar kirishi asoslangan.

**Kalit so'zlar:** agroservis, agroservis sohasi, kambag'allik, kambag'allikni qisqartirish, ishsizlik, bandlik, ish o'rinlari, tadbirkorlikka jalb etish, qishloq hududlari, issiqxonalar, yerlarni ijaraga berish.

**Abstract.** This article examines ways to reduce poverty through the development of the agricultural services sector. Specific measures for poverty reduction are identified. These include, in particular, cooperation between exporters and the poor, employment of the population in permanent jobs, involvement in entrepreneurship, land leasing, and a number of other areas.

**Key words:** agro-service, agro-service sector, poverty, poverty reduction, unemployment, employment, job creation, involvement in entrepreneurship, rural areas, greenhouses, land leasing.

**Аннотация.** В статье рассматриваются способы сокращения бедности посредством развития агросервисного сектора. Определены конкретные меры по снижению бедности. К таким мерам относятся, в частности, сотрудничество между экспортерами и бедными слоями населения, трудоустройство населения на постоянные рабочие места, вовлечение в предпринимательство, аренда земли и ряд других областей.

**Ключевые слова:** агросервис, сфера агросервиса, бедность, сокращение бедности, безработица, занятость, рабочие места, вовлечение в предпринимательство, сельские территории, теплицы, аренда земель.



## KIRISH

Mazkur mavzuning dolzarbligi bugungi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bevosita bog'liq holda yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Qishloq hududlarida kambag'allik muammosining mavjudligi ushbu masalaga tizimli va innovatsion yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Aholining salmoqli qismi aynan qishloq joylarda istiqomat qilayotgani, mehnat resurslarining yetarli darajada safarbar etilmagani va xizmatlar bozorining rivojlanish salohiyati to'liq ishga solinmagani yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yuzaga chiqarish uchun keng maydon yaratadi. Shu nuqtayi nazardan, agroservis sohasi qishloq hududlarida tezkor, samarali va barqaror ish o'rinlari yaratish imkoniyatiga ega istiqbolli yo'nalish sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Agroservisning muhim ustunliklaridan biri uning yuqori qo'shimcha qiymat yaratish salohiyatidir. Ushbu soha nafaqat qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, balki texnika xizmati, logistika, qayta ishlash, saqlash, agrokonsalting va boshqa xizmat turlarini o'z ichiga oladi. Natijada ishlab chiqarish zanjiri kengayadi, mahsulotlarning bozor qiymati ortadi va aholi daromadlari barqaror oshib boradi. Bu esa qishloq hududlarining iqtisodiy faolligini kuchaytirib, hududiy rivojlanishning yangi bosqichini boshlab beradi.

Agroservis sohasini rivojlantirish bandlikni ta'minlash va mehnat bozorini faollashtirishda ham katta imkoniyatlar yaratadi. Doimiy va mavsumiy ish o'rinlarining tashkil etilishi, o'zini o'zi band qilish imkoniyatlarining kengayishi, yoshlar hamda xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatiga jalb etilishi ijtimoiy faollikni oshiradi. Bu jarayonlar nafaqat ishsizlik darajasini pasaytiradi, balki aholining iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlaydi hamda jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni kuchaytiradi.

Shu jihatdan, agroservis sohasini rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish masalasi mamlakatimiz uchun katta strategik ahamiyatga ega bo'lib, u ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, hududiy muvozanat va barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladigan ustuvor ilmiy-amaliy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi bosh ilmiy xodimi Baxtishod Xamidov kambag'allik deganda insonning birlamchi ehtiyojlarini (oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, ta'lim va sog'liqni saqlash) qondirishga imkoniyatning mavjud emasligini tushunsa, boshqalar — tanlov erkinligining yetarlicha emasligi yoki kuniga 1,90 dollardan kam miqdorda kun kechirishni, uchinchi tomon esa insonning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ishtirokiga putur yetkazuvchi ijtimoiy, ta'lim va sog'liqni saqlash sohasidagi to'siqlarning doimiy doirasini tushunishadi, deb ta'kidlagan.

Professor M. Muhammedov fikricha, "Kambag'al aholi deganda ikki toifani nazarda tutish mumkin. Birinchi toifa kambag'al aholi — bu o'z hayotini tuzatishni istamaydigan, istasa-da, bunga harakat qilishga dangasalik qiladiganlar. Ikkinchi toifasi esa ma'lum sabablar tufayli shunday holga kelib qolgan, ishlashni istaydigan, ammo ba'zi sabablar bilan bunga imkon topolmagan insonlardir", deb ta'kidlaydi.

Professorlar M. Pardayev, O. Pardayevlarning fikricha, "Kambag'allik toifasiga kiradigan aholini uch guruhga bo'lish mumkin. Birinchisi ishsizlar, tegishli malakasi bor, ammo o'zlariga munosib ish topa olmayotgan aholi. Ikkinchi toifaga ish bilan band, ammo olgan oylik maoshi oilasini kambag'allik chegarasidan chiqib ketishiga yetarli bo'lmaydigan shaxslar kiradi. Uchinchi ishlash imkoniyati yo'q (nogironligi bor, mehnatga qobiliyatsiz, boquvchisi yo'q bolalar va qariyalar) aholi qatlami".

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada agroservis sohasini rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish yo'llarini ko'rib chiqish jarayonida tizimli yondashuv, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, zamon va makon, abstrakt fikrlash, monografik va mantiqiy yondashuv kabi usullardan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Agroservis sohasida kam sarmoya talab qiluvchi faoliyat turlari orqali kambag'al aholini iqtisodiy faollikka jalb etish imkoniyati ham ochiladi. Bular issiqxona xo'jaligi, tomorqa xizmati, qishloq xo'jaligi texnikasini ijaraga berish va boshqalar kambag'al aholini iqtisodiy jarayonlarga jalb etish imkonini beradi. Ushbu yo'nalish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari bilan uyg'unlashgan holda barcha sohalariga ijobiy ta'sir qiladi. Zero, O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish, qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilish va xizmatlar sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu tufayli agroservis sohasini rivojlantirish mazkur maqsadlarga to'liq mos keladi va amaliy samara beradi.

Mamlakatning barqaror rivojlanishi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalasi ham bevosita agroservis sohasi bilan bog'liqdir. Agroservis sohasining rivoji qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish, oziq-ovqat mahsulotlari hajmini ko'paytirish va ularning sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Bu esa aholi farovonligini oshirish orqali kambag'allikni qisqartirishda muhim ahamiyat kasb etishi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir.



Kambag'allikni qisqartirishning yo'llaridan biri qishloq joylarda aholining tomorqalaridan samarali foydalanish bilan bog'liq. Bu ishni tashkil qilish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar Samarqand viloyatida e'tiborga loyiq. Chunki aholi tomorqalaridan samarali foydalanishda, tomorqadan yiliga 2–3-marta hosil olish, bir mahalla — bir mahsulot tamoyili, o'z-o'zini band qilish borasida bir qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Bunday samarali ish 2022-yilda boshlangan bo'lib, shu yilning o'zida hosili uchun 631 ming 444 ta aholi xonadonlaridagi 69 ming 569 gektar tomorqa yerlarida mavsumiy ekinlar ekish, jumladan, 23,9 ming gektar to'qsonbosti, 57 ming 404 gektar ertaki, 33 ming 292 gektar o'rtaki (takroriy) ekinlar ekish ishlari tashkil qilinishi belgilangan edi. Bu muvaffaqiyat bilan amalga oshirildi.

To'qsonbosti ekinlaridan 315 ming 208 tonna, bahorgi ekinlardan 1 mln 29 ming 669 tonna, o'rtaki (takroriy) ekinlardan 489 ming 879 tonna, jami viloyat bo'yicha aholi tomorqalaridan 1 mln 834 ming 756 tonna (o'tgan yilga nisbatan 121,1 foizga ziyod), shundan 1 mln 200 ming 156 tonna sabzavot, 399 ming 426 tonna kartoshka, 88 ming 330 tonna poliz, 31 ming 568 tonna dukkakli hamda 115 ming 275 tonna boshqa turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirildi.

Shuningdek, aholi tomorqalariga 2022-yil hosili uchun 33 ming 292 gektar maydonlarga o'rtaki (takroriy) ekinlar (18 ming 858 gektar sabzavot, 4 ming 365 gektar kartoshka, 813 gektar poliz, 5 ming 571 gektar dukkakli hamda 3 ming 685 gektar boshqa ekinlar) ekish bo'yicha "mahallabay dasturlar" ishlab chiqilib, tasdiqlandi. Bu ham tegishli tarzda amalga oshirildi.

Natijada shu yilning o'zida 18 ming 389 gektar (55,2 foiz) tomorqalarga o'rtaki ekinlar, jumladan, 10 ming 500 gektar (55,7 foiz) sabzavot, 441 gektar (54,3 foiz) poliz, 388 gektar (8,9 foiz) kartoshka, 4 ming 638 gektar (83,2 foiz) dukkakli hamda 2 ming 422 gektar (65,7 foiz) boshqa turdagi qishloq xo'jaligi ekinlari ekildi. Viloyat bo'yicha 2022-yilda 11 ming 280 ta xonadonda (8 ming 122 xonadonda namunaviy va 3 ming 158 xonadonda mahalliy xom ashyodan) jami 147 gektar maydonga ixcham issiqxonalar qurish belgilandi. Bu ham bir qancha aholining kambag'allikdan chiqishiga sabab bo'ldi.

2022-yilning 8-iyul holatiga 8 ming 565 xonadonda (5 ming 947 ta xonadonda namunaviy hamda 2 ming 618 ta xonadonda mahalliy xom ashyodan) jami 100,7 gektar maydonga ixcham issiqxonalar tashkil etilgan edi. Shu bilan viloyat bo'yicha 52 ming 601 ta xonadonda jami 548,8 gektar maydonda ixcham issiqxonalar tashkil qilindi. Shu tariqa tomorqadan samarali foydalanib, yiliga ikki-uch marta hosil oladigan xonadonlar soni yildan-yilga ko'payib bormoqda. Jumladan: 1-marta hosil oladigan xonadonlar 27 foizni, 2-marta hosil oladigan xonadonlar 59 foizni hamda 3–4-marta hosil oladigan xonadonlar 17 foizni tashkil qilmoqda.

Bunga bir qancha misollar bor. Jumladan, Samarqand tumani Juyi Abbos mahallasidagi Haydarov Bobur 24 sotix tomorqasida, shundan ikki sotixi issiqxona, 700–750 kg limon yetishtiradi, qolgan maydonlarda 2 tonna kartoshka va sabzavot mahsulotlari yetishtiradi, 125 tup tok, 19 tup mevali daraxt, 4 ta yirik shoxli, 62 ta mayda shoxli chorva mollari, 15 bosh xonaki parranda parvarishlaydi, yiliga 60–65 mln so'm daromad olib kelmoqda. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Muhimi, har bir insonda, har bir oilada intilish bo'lishi kerak. "Intilganga – tol yor", deb bejiz aytilmaydi. Afsuski, ayrim odamlar jismonan baquvvat, imkoniyatlari bor, biroq o'zining, birinchi galda, o'ziga befarvoligi, mas'uliyatsizligi tufayli kambag'al yashash ko'nikmasiga ega bo'lib qolishgan.

"Bir mahalla – bir mahsulot" tamoyili asosida 2022-yil davomida 482 ta mahalla bir xil turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashtiriladi. Chunki buni bitta fermer xo'jaligi sotib olib, bir xil mahsulotni xorijiy mamlakatlarga eksport qiladi. Shu yilda boshlangan bunday xayrli tadbirlar hozir ham davom etmoqda va sezilarli darajada foyda olinmoqda. Bu ham aholining farovonligini oshirib, kambag'allikning qisqarishiga ko'mak bo'lmoqda.

Ushbu tadbirlar boshlangan 2022-yilning 1-iyul holatiga 312 ta MFY, 91 ming 339 ta xonadon, 7 ming 566 gektar tomorqa maydonlari bir turdagi mahsulot yetishtirishga ixtisoslashtirildi. Jumladan: 146 ta mahalla 3 ming 310 gektar sabzavotchilik, 49 ta mahalla 1 ming 244 gektar kartoshkachilik, 20 ta mahalla 610 gektar poliz, 77 ta mahalla 1 ming 968 gektar mevachilik va bog'dorchilik, 7 ta mahalla 145 gektar rezavor mevalar, 13 ta mahalla 3 ming 613 xonadon chorvachilik va parrandachilik bilan shug'ullanishga ixtisoslashtirildi. Bularning hammasi aholini kambag'allikdan chiqarish bilan birga farovonlikni oshirishga mo'ljallangan.

Bunga ham bitta misol keltiradigan bo'lsak, Kattaqo'rg'on tumani Valijon MFY Tog'aykusa qishlog'i yashovchi Usmonov Qosim 9 sotixli issiqxonasida avgust oyi boshida qulupnay ko'chatini ekib, mart–aprel oyida 2,5 tonna qulupnay yetishtirib, ichki bozorda o'rta hisobda 30 ming so'mdan sotib, 75 mln so'm may oyigacha daromad olishga erishadi. May oyi boshida pomidor-bodring ko'chatini ekib, 9 tonna bodring mahsulotini ichki bozorda iyul oyida o'rta hisobda 4 ming so'mdan sotib, 36 mln so'm daromad olishga erishadi. Sentabr oyi o'rtalarida qulupnay ko'chatlari orasiga sarimsoqpiyoz yetishtirish uchun urug' ekib, fevral oyi boshida bir bog' ko'kat sifatida o'rtacha 5 000 so'mdan sotib, 5 mln so'm daromad olib, bir yillik daromadi 116,0 mln so'mni tashkil qiladi. Ko'rinib turibdiki, agar harakat qiladigan bo'lsa, tegishli daromadga ega bo'ladi. Agar befarq bo'ladigan bo'lsa, qorni ham, ko'ngli ham to'ymasdan, kambag'allik holatida kun kechirishga ko'nikib qoladi.



O'zbekiston so'nggi yillarda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha eng sezilarli sur'atlardan birini namoyon etdi. "2025-yil yakunlariga ko'ra, Milliy statistika qo'mitasi Jahon banki bilan hamkorlikda o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, O'zbekistonda 2025-yil yakunlari bo'yicha kambag'allik darajasi 3,1 foiz punktga qisqarib, 5,8 foizni tashkil etdi". Ushbu holat, o'z navbatida, aholi bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni faol qo'llab-quvvatlash, mahallalarda ehtiyojmand aholi qatlami bilan manzilli va ta'sirchan ishlashni tashkil etish hamda ijtimoiy xizmatlar ko'lamini kengaytirish natijasida yuzaga kelganligini alohida qayd etish lozim.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, "O'zbekistonda kambag'allik darajasini hisoblash metodologiyasi Jahon bankining tavsiyasiga ko'ra 16 mingta uy xo'jaliklari budjetini o'rganish asosida amalga oshiriladi"<sup>1</sup>.

Hamkorlikda qilingan hisob-kitoblarga ko'ra, O'zbekistonda kambag'allik darajasi keskin kamayganligini ko'rish mumkin. Xususan, "2023-yilda respublikada kambag'allik darajasi 14 foizdan 11 foizga, 2024-yilda 8,9 foizga, 2025-yilda esa 5,8 foizgacha qisqardi. Natijada joriy yilda ehtiyojmand 302 ming oila kambag'allikdan chiqarildi". Bunday holat, ya'ni kambag'allik darajasining pasayishi respublikaning barcha hududlarida kuzatilmoqda. Bunday ijobiy holat kambag'allikni qisqartirish bo'yicha uzoq o'ylangan chora-tadbirlar natijasida ro'y bermoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda kambag'allikni tugatish bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar o'z samarasini bermoqda. Bu boradagi ishlar yanada davom etmoqda va etadi. Bunga yanada ko'proq erishish uchun quyidagi tavsiyalarni berishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bular:

Birinchidan, eksport qiluvchi korxonalar talabidan kelib chiqib va ularning ishtirokida Xitoy tajribasiga asoslangan holda "Kompaniya – kooperativ – dehqon xo'jaligi" tamoyili asosida ishni tashkil qilish lozim bo'ladi. Ushbu yo'nalishda mamlakatimizda "484 ta kooperativ tashkil etilib, ularga 15,7 ming nafar kambag'al oila a'zolari jalb qilingan". Bu ishni yana davom ettirish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, hozirgi kunda o'rmon xo'jaliklariga qaraydigan katta yer fondi foydalanilmayapti. Chunki o'rmon xo'jaligining hamma hududlari band emas. Shu tufayli bo'sh yerlaridan ham kambag'allikni qisqartirish uchun foydalanish lozimdir. Hozirgi kunda "mamlakatimizda 8,7 mingta kambag'al oilaga ko'chatxona tashkil etish va dorivor o'simliklar yetishtirish uchun 21 ming gektar yer maydoni ijara asosida ajratib berilgan". Ushbu hududlar ham kambag'allikni qisqartirishga xizmat qilmoqda.

Uchinchidan, ko'p hollarda qishloq joylarda mahsulot yetishtirib, uni sotish imkoniyati biroz murakkab edi. Buni inobatga olib, kambag'al oilalarga o'zi yetishtirgan oziq-ovqat mahsulotini sotish uchun dehqon bozorlari va supermarketlardan maxsus savdo joylari ajratib berish masalasini qo'ygan edik. Ushbu tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida "qishloqlarda istiqomat qiladigan 2,3 mingta kambag'al oilalarga o'zi yetishtirgan mahsulotini sotish uchun dehqon bozorlari va supermarketlardan 7,5 ming kv. m maxsus savdo joylari ajratildi". Bularning mahsulotlarini tashib kelish xizmatlari ham yengillashtirilib, arzon narxda tashkiliy ravishda olib kelib berilmoqda. Ushbu holat ko'plarga ibrat bo'lib, ancha aholi shunga intilib qolishdi.

To'rtinchidan, mamlakatimizning barcha hududlarida, xususan, qishloqlarda tajriba tariqasida yangi "turizm mahallalari"ni tashkil etish yo'lga qo'yilgan edi. Ushbu mahallalarda turizm xizmatlarini rivojlantirish orqali ko'plab kambag'al oila a'zolarining bandligi ta'minlandi. Ushbu ishlarni yanada davom ettirishni taqozo qiladi. Bu bo'yicha mamlakatimizda tegishli tajriba ham yetarli. Xususan, o'tgan davrda "12 ta yangi "turizm mahallalari"ni tashkil etish hamda 40 ta mahallada turizm xizmatlarini rivojlantirish orqali 1,3 ming nafar kambag'al oila a'zolarining bandligi ta'minlandi".

Beshinchidan, mamlakatimizda Muhtaram Prezidentimizning ko'rsatmalariga binoan kambag'allikni qisqartirish bo'yicha bir qancha ishlar amalga oshirildi. Bulardan biri hududlarda joylashgan mahallalarda minglab mikroloyihalarni amalga oshirish bo'lib, bu orqali respublikada ko'plab kishilarning bandligi ta'minlandi. Bunga misol qilib, "Sayxunobod tajribasi bo'yicha mahallalarda qiymati 18 trln so'mlik 394 mingdan ortiq mikroloyihalar amalga oshirilib, bu orqali respublikada jami 809 ming kishining bandligi ta'minlandi". Ushbu ishlarni ham tizimli ravishda davom ettirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Agar ushbu tavsiyalarimiz amalga oshadigan bo'lsa, mamlakatimizda, xususan, Samarqand viloyatining qishloq hududlarida kambag'allik darajasi tizimli ravishda qisqarib borish tendensiyasiga ega bo'ladi va, alal oqibat, kambag'allikka barham beriladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. М. Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. "Халқ сўзи" газетаси, 2020 йил 25 январь, № 19 (7521).
2. Ricardo, David (1817). On the Principles of Political Economy and Taxation. Piero Sraffa (Ed.). Works and Correspondence of David Ricardo, Volume I. Cambridge University Press, 1951, p. 135.

<sup>1</sup> [https://nuz.uz/uz/2026/01/02/Ozbekistonda-2025-jil-yakunlari-bicha-kambaallik-darazhasi-va-aoli-daromadlari-talili-infografika/utm\\_source=chatgpt.com](https://nuz.uz/uz/2026/01/02/Ozbekistonda-2025-jil-yakunlari-bicha-kambaallik-darazhasi-va-aoli-daromadlari-talili-infografika/utm_source=chatgpt.com)





3. Спенсер Г. Социальная статика. Изложение социальных законов, обуславливающих счастье человечества. – СПб.: В. Врубелевский, 1906.
4. Мальтус Т. Р. Опыт закона народонаселения / Т. Мальтус; сокр., пер. И. А. Вернера. – М.: М. Н. Прокопович, 1908. – 180 с.
5. Rowntree B. S. Poverty: A Study of Town Life. – L.: Macmillan, 1901. – 289 p.
6. Пардаев М. Қ., Пардаев О. Камбағалликни баҳолаш ва уни камайтириш йўллари. Рисола. – Самарқанд, 2020.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 2

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>